

O'ZBEK VA XITOY TILLARIDAGI LAKUNALARNING TO'LDIRILISHI XUSUSIDA

Arifova Umida Abdumalikovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

tayanch doktoranti

umidaarifova2@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqola o'zbek va xitoy tillarida lakunalarning to'ldirilishi xususida dunyo tilshunosligida ikki tilni qiyoslash orqali til egalarining mentaliteti, milliy-madaniy o'ziga xosliklarni o'rganish lingvomadaniy tadqiqotlarning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Lakunalarni bartaraf etish masalasini ilmiy o'rganish esa mazkur tillarning lingvistik imkoniyatlarini belgilab beradi.

Maqolada muallif ushbu asarda milliy ruh, urf-odatlar va turmush haqiqatlarini ifodalovchi so'zlarning qanday mahorat bilan berilganligi, ularning tilshunoslik va tarjimashunoslik ilmda qanday o'rin tutishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, tarjima jarayonidagi jiddiy to'siqlardan biri — lakunalarning xitoy tillarda to'liq ekvivalentining yo'qligi muammosiga badiiy va ilmiy nuqtai nazardan yondashiladi..

Kalit so'zlar: lakuna, realiya, ot so'z turkumiga oid lakunalar, kiyim kechak nomlarini ifodalovchi lakunalar.

Аннотация Настоящая статья посвящена проблеме восполнения лакун в узбекском и китайском языках. В современном языкознании сопоставительное изучение двух языков становится одним из ключевых инструментов лингвокультурологических исследований, позволяя проникнуть в глубины национального менталитета и выявить уникальные культурно-специфические черты носителей языка. Научное осмысление способов элиминации лакун, в свою очередь, открывает широкие возможности для постижения лингвистического потенциала сопоставляемых языков.

В работе автор с особым вниманием рассматривает, с каким мастерством в языке передаются слова, воплощающие национальный дух, вековые обычаи и подлинные реалии быта, а также определяет их место в общей системе лингвистического и переводоведческого знания. Особый акцент сделан на одной из серьезнейших преград в переводческом деле — отсутствии полного эквивалента у лакунарных единиц в китайском языке. Данная проблема анализируется как с художественной, так и с научной точек зрения, что позволяет взглянуть на неё объёмно и многогранно. Именно этим вопросам и посвящено исследование, представленное в статье.

Ключевые слова: лакуна, реалия, лакуны в сфере имён существительных, лакуны, обозначающие наименования предметов одежды.

Bugungi globalashuv davrida tillararo va madaniyatlararo muloqotning ahamiyati ortib bormoqda. Turli xalqlarning til tizimlari, dunyoqarashi va tafakkur tarzidagi farqlar ko‘pincha o‘zaro tushunishda to‘siqlarni keltirib chiqaradi.

Dunyo tilshunosligida ikki tilni qiyoslash orqali til egalarining mentaliteti, milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni o‘rganish lingvomadaniy tadqiqotlarning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Lakunalar bartaraf etish masalasini ilmiy o‘rganish esa mazkur tillarning lingvistik imkoniyatlarini belgilab beradi.

Lakunarlik hodisasini o‘rganish tilshunoslikda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlana boshladi. Lakuna termini ilk bor kanadalik tilshunos J.P.Vine va J.Darbelnelar tomonidan ilmiy muomilaga kiritildi. Lakuna termini tilshunoslikda turli hil terminlar bilan izohlanadi. Ingliz tilshunosligida lakuna so‘zi lexical gap yoki lexical vacancy terminlari bilan ifodalanib, gap so‘zi bo‘shliq, bo‘sh joy degan ma’nolarni anglatadi.

Rus tilshunosi G.V.Bikova lakunani quyidagicha ta’riflaydi: Lakuna bu leksema shaklida moddiy mujassamlanmagan, biroq konseptning kommunikativ talabi bilan sintaktik darajada obyektiv voqealanish xususiyatiga ega virtual leksik mohiyat sememadir. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, lakunaning asosiy belgilari sifatida “moddiy mujassamlanmagan”, “sintaktik darajada ob’ektiv voqealangan”, “virtual leksik mohiyat” kabi xususiyatlarni ko‘rsatish mumkin. I.A.Sternin, Z.D.Popova, M.A.Sterninalar o‘z ishlarida lacunar birlik birikmasini ekvivalenti bo‘lmagan birlik ifodasi bilan beradilar. “Ekvivalenti bo‘lmagan birlik – bir tilda mavjud bo‘lgan, biroq ikkinchi tilda uchramaydigan birlikdir. Lakuna – bu bir tilda mavjud bo‘lmagan birlikning boshqa bir tilda mavjud bo‘lishidir. Ekvivalenti bo‘lmagan birlik va lakunalar doim juftlikda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida ilk bor lakunalar va ularning taksonomiyasi masalasini o‘rgangan olim Sh.R.Usmanova bu tushunchaga quyidagicha ta’rif beradi: “Lakuna (lot.lacuna “bo‘shliq, chuqurlik,cho‘nqir joy”; frans.lacune “bo‘shliq, bo‘sh joy”) biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy- hayoti uchun harakterli va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalaridir. Lakunarlik hodisasi, ayniqsa, ikki tilli va ko‘p tilli lug‘atlarni tuzishda ko‘p kuzatiladi. O‘z muqobiliga ega bo‘lmagan so‘z ikkinchi tilda izoh berish yoki mazmunan mos birikmalarini keltirish yo‘li bilan beriladi.

N. Ismatullayeva o‘zining “Xitoy va o‘zbek tillarida lakunalar” nomli monografiyasida quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: ikki tilni chog‘ishtirish bilangina lakunarlik hodisasini to‘liq o‘rganib, u yoki bu tilning lug‘at boyligi borasida to‘g‘ri hulosaga kelib bo‘lmaydi. Chunki muayyan tushunchaga nom berish tilga ta’sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Tarjima jarayonida lug‘atsiz ish olib borish imkonsizligini ham tan olish lozim. Ya’ni, lug‘at tarjimonning doimiy hamrohi va ijod jarayonida uning o‘rni beqiyos.

Chunki hech bir ijodiy faoliyat tarjimon mehnatchilik lugʻatlar bilan uzviy bogʻliq emas.

Xitoy tilida ekvivalenti yoʻq soʻzlar, lakunalarni ifodalash uchun 词汇空缺 *cíhuì kòngquē* (leksik kemtiklik), 词汇空白 *cíhuì kòngbái* (leksik boʻshliq), 词汇空位 *Cíhuì kòngquē* (leksik ochiq boʻsh joy) kabi terminlardan foydalaniladi. Xitoy tilshunosligida lakunarlik hodisasini Deng Yangling (**Dèng Yánglíng** 邓艳玲), Tan Zaisi (谭载喜 **Tán Zàixī**), Vang Bingchin (王秉钦 **Wáng Bǐngqīn**), Chin Sijong (陈喜荣 **Qín Xīróng**), Guo Aysian (郭爱先 **Guō Àixiān**) singari olimlar tomonidan oʻrganilgan.

Xitoylik tarjimashunos olim Jou Yuyjong (周玉忠 **Zhōu Yùzhōng**) lakunarlik hodisasi haqida soʻz yuritib, quyidagilarni qayd etadi: Odatda tillar oʻrtasida teng unsurlar mavjud boʻladi. Biroq til va madaniyat oʻrtasidagi tafovut tufayli bir soʻzga boshqa bir tilga mos keladigan yoki ekvivalent boʻla oladigan soʻz topilmasligi mumkin. Bunday holatda lakunarlik hodisasi yuzaga keladi.

Tadqiqotimiz mobaynida Oʻ. Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, “Nur borki, soya bor” asarlarida ikki tilni qiyosida namoyon boʻladigan lakunar birliklar aniqlandi. Masalan,

Erta bahorda qiygʻos (lakuna) gullardi-yu, hech meva tugmasdi. 每年春初它都会开很多花, 但从未结果。Měi nián chūn chū tā dōu huì kāi hěn duō huā, dàn cóng wèi jiéguǒ. Keltirilgan misolda qiygʻos soʻzi lakuna boʻlib, bu oʻzbek tiliga xos soʻz u tabiatni chiroyli qilib koʻrsatuvchi lakunar birlik hisoblanadi. Xitoy tilida esa qiygʻos soʻzini tarjimon asar asliyatga yaqin soʻz 开很多花 *kāi hěn duō huā* yaʼni, judayam koʻp gul ochilib turibdi degan soʻz bilan ifodalaydi.

Kun botishi bilan onam hovliga koʻloblatib suv separ, kunboʻyi oftobda qizigan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qoʻshilib ajib bir tarovat taratardi. 每当日落后妈妈酒水的时候, 一天下来太阳晒得暖洋洋的大地跟水汽混在一起, 就能闻到很好闻的气味。Měi dāng rì luò hòu māma jiǔ shuǐ de shíhou, yī tiān xià lái tàiyáng shài dé nuǎnyángyáng de dàdì gēn shuǐqì hùn zài yīqǐ, jiù néng wén dào hěn hǎowén de qìwèi.

Xitoy tilida 酒水 *Jiǔshuǐ* soʻzini ot soʻz turkumiga tegishli deb oladigan boʻlsak ichimlik deb tarjima qilamiz. 酒水 *Sǎshuǐ* soʻzini feʼl deb olsak chang bostirish uchun koʻchaga sepiladigan suv yaʼni, suv sepmoq deb tarjima qilinadi. Xitoyda bu maʼmuriy yoki kommunal xizmat vazifasi sifatida qaraladi.

Jumladan, Ochil ochil oq toshlar-a, men onamni koʻrayin-a, diydori ga toʻyayin-a. 母亲早去弟年幼 再见一面慰心田 *Mǔ qīn zǎo qù dì nián yòu, zài jiàn yī miàn wèi xīn tián*. keltirilgan diydor soʻzi lakuna boʻladi. Diydor – kishining yuzi, jamoli, ruhsori boʻlsa, koʻchma, uzoq ayriliq sogʻinchdan keyin koʻrishish, uchrashish maʼnolarida qoʻllaniladi. Xitoy tili tarjimasida esa diydor soʻzini tarjimon 见一面慰心田 *jiàn yī miàn wèi xīn tián* iborasi bilan beradi va bu xitoy tilida bir koʻrishning oʻzi yuragimga

malham bo'ladi degan ma'noni anglatadi. Volidayi mehriboningiz xo'p yarlaqagan odam ekanlar. 你的妈妈是真正的好人 Nǐ de māma shì zhēnzhèng de hǎorén. Jumlada yaraqlagan so'zi lakuna bo'lib, izohli lug'atda yorlaqamoq fe'lidan olingan. Xitoy tili tarjimada 真正 zhenzhen asl, haqiqiy tarzida berilganligi kuzatildi. Darhaqiqat, O'. Hoshimov o'z asarlarida tasvirlagan har bir voqeadan falsafiy hulosa chiqarish mumkin. Tadqiqot ishida "Nur borki, soya bor" romanida ham bir qancha lakuar birliklar aniqlandi. Yo'lakning qoq o'rtasida, devor tagidagi yig'makaravotda ikki bukilib o'tirgan, rangi sarg'ayib ketgan mushtdekkina chol Sherzodning ko'z o'ngiga keldi. 谢尔扎德从窗户看了一眼，立刻想象出医院走廊，在值班护士的桌子旁放着一张折叠床，小老头儿弯着腰，闭着眼睛，面色发黄. Xiè'ěrzhdé cóng chuānghu kàn le yī yǎn, lìkè xiǎngxiàng chū yīyuàn zǒuláng, zài zhíbān hùshi de zhuōzi páng fàng zhe yī zhāng zhédié chuáng, xiǎo lǎotóu wān zhe yāo, bì zhe yǎnjīng, miànsè fā huáng Bu misoldagi rangi sarg'ayib ketgan, mushtdekkina so'zlari lakunar birlik bo'lib, o'zbek xalqining soddagina xolatini ko'rsatib beradi.

Chol endi yo'talmas g'ujanak bo'lib devorga o'girilib yotib olgan edi. 现在他已经不再咳嗽了，折老人的病情可能已经过去了，他一动不动地躺着. xiàn zài tā yǐ jīng bù zài ké sou le, zhé lǎo rén de bìng qíng kě néng yǐ jīng guò qù le, tā yī dòng bù dòng de tǎng zhe. Ushbu misolda g'ujanak so'zi lakunar birlik hisoblanadi uni tarjimon xitoy tiliga 一动不动地 yī dòng bù dòng de ya'ni, qimir etmay harakatlanmay degan so'z bilan tarjima qilib asar asliyatini saqlab qoladi.

Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimov asarlaridagi lakunalar, realiya soni ularning turlari aniqlandi. Tadqiqotimiz jarayonida lakuna va realiya terminlarga berilgan nazariy qarashlar o'rganildi. Lakuna va realiya terminlarini farqlari misollar orqali yoritildi va ularning tarjima usullari ko'rib chiqildi. Tarjimada asarlarning badiiyligi voqealar tafsifi, manzaralarning haqqoniyligi, tasvirning chuqurligi, badiiy detallarni ifodali bolishi, tilning jonli, tilning soda va tabiiyligini saqlab qolganligini korib chiqildi. Demak, realiyalarni tarjima qilishda transliteratsiya, transkripsiya, izohli tarjima, kalkalash usullaridan keng foydalanilganligi aniqlashtirildi, Lakunar birliklarda esa bunday tarjima usullaridan foydalanmaslik masalasi ko'rildi. Tarjimashunoslikda lakuna va realiya tushunchalari alohida-alohida mazmun va qo'llanilishiga ega ekanligi, lakunalarda lisoniy tarjima qilina olmaslik holati, realiyalar tarjimasida esa madaniy qiyinchiliklar yuza kelishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ismailova D.Toshkent: - 2022. 6.页. 霍希莫夫。乌。有光必有影.
2. Hoshimov O'. Nur borki, soya bor romani. – Toshkent.: nurli dunyo nashriyot uyi.: 2024, - B. 7.
3. 霍希莫夫。乌。有光必有影。 Ismailova D.Toshkent: - 2022. 6.
4. Ismatullayeva N. Xitoy va o'zbek tillarida lakunalar.(monografiya). – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. – B. 10.
5. Стернин И.А., Попова З.Д.,Стернина М.А. Лакуна и концепты./Лакуны в языке и речи: Сборник научных трудов/ - Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – С. 206.
6. Usmonova. Sh. Lingvokulturologiya. (darslik) -Toshkent: TDO'TAU, 2019. - B. 29.